

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**

**G. Sh. Rixsiyeva**

2025-yil “12” 26



**SHARQ MAMLAKATLARIDA TIL VAZIYATI VA SIYOSATI**  
**(ERON)**


**FANINING O‘QUV DASTURI**

**Bilim sohasi:** 200000 – San’at va gumanitar fanlar  
**Ta’lim sohasi:** 230000 – Tillar  
**Mutaxassislik:** 70230101 – Lingvistika (sharq tillari bo’yicha)

**Toshkent–2025**


Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti direktori:  Mirzaxmedova X.V.

Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabi boshlig'i:



Nuriddinov N.N.

ARM boshlig'i



Yuldasheva M.M.

<b>Fan/modul kodi</b> ShMTVS1204	<b>O'quv yili</b> 2025-2026	<b>Semestr</b> 2	<b>ECTS — Kreditlar</b> 4	
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy	<b>Ta'lim tili</b> O'zbek		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 4	
1.	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	"Sharq mamlakatlarida til vaziyati va siyosati (Eron)"	48	72	120
2.	<p style="text-align: center;"><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p><b>Fanning maqsadi:</b> talabalarni Eronning Islom inqilobiga qadar va undan keyingi davrlardagi til vaziyatining o'ziga xos xususiyatlari, hozirgi davrda tilda yuz berayotgan jarayonlarni o'rganish hamda tilning rivojlanishi va o'zgarishiga ta'sir etadigan lingvistik va ekstralingvistik omillarni tushinib yetish bilan tanishtiradi.</p> <p><b>Fanning vazifasi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- talabalarda mamlakatdagi etnolingvistik vaziyat, mavjud tillarning tarixiy ildizlari, bir oila va guruhga mansub tillar, ular orasidagi munosabatlar, ya'ni tillarning o'zaro aloqalari va ta'siri, mazkur omillarning tillarning leksik fondining shakllanishidagi rolini diaxronik va sinxronik planda tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish;</li> <li>- mamlakatdagi tillarning adabiy til sifatida shakllanish jarayoni va unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish;</li> <li>- mamlakatda yuzaga kelgan holat va unga ta'sir etuvchi ekstralingvistik omillarni baholash;</li> <li>- til ta'limi, uning mamlakatdagi tillarning zamon talabiga mos holda rivojlanishiga ta'siri, tillarning holatiga ta'sir etuvchi muhim masalalarni tahlil qilish.</li> </ul> <p><b>Xorij tajribasiga muvofiqligi:</b></p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi <b>University of Pennsylvania</b>. (Department of Statistics at the University of Pennsylvania.) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.</p> <p><a href="https://www.sas.upenn.edu/~haroldfs/540/2006sked.html">https://www.sas.upenn.edu/~haroldfs/540/2006sked.html</a></p>			

## **II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

### **II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

#### **1-mavzu. Til vaziyati va etnolingvistik vaziyat. Til vaziyatlarining turlari**

Til va etnolingvistik vaziyat tushunchasi. Mamlakatdagi tillarning rasmiy maqomi (statusi). Mamlakatdagi rasmiy tillarning lahjalarini o'rganish.

#### **2-mavzu. Zamonaviy fors tili lug'atining shakllanishi va rivojlanishining ba'zi xususiyatlari (1979 yil Islom inqilobigacha) - 1-qism.**

Fors tilining tarixiy ildizlari, arab tilidan kirib kelgan so'zlarning o'rne, shuningdek, g'arb tillarining ta'siri tahlil qilinadi. Lug'at boyligining kengayishida madaniy, siyosiy va ijtimoiy omillarning tutgan o'rni ko'rsatiladi. Ayniqsa, matbuot, adabiyot va ta'lim sohalari orqali tilning boyib borishi va normativ lug'atlarning tuzilishi jarayoniga alohida e'tibor qaratiladi. Shu orqali, inqilobgacha bo'lgan fors tili leksikasi va u bilan bog'liq til siyosati elementlari ochib beriladi.

#### **3-mavzu. Zamonaviy fors tili lug'atining shakllanishi va rivojlanishining ba'zi xususiyatlari (1979 yil Islom inqilobigacha) - 2-qism.**

Fors tilining tarixiy ildizlari, arab tilidan kirib kelgan so'zlarning o'rne, shuningdek, g'arb tillarining ta'siri tahlil qilinadi. Lug'at boyligining kengayishida madaniy, siyosiy va ijtimoiy omillarning tutgan o'rni ko'rsatiladi. Ayniqsa, matbuot, adabiyot va ta'lim sohalari orqali tilning boyib borishi va normativ lug'atlarning tuzilishi jarayoniga alohida e'tibor qaratiladi. Shu orqali, inqilobgacha bo'lgan fors tili leksikasi va u bilan bog'liq til siyosati elementlari ochib beriladi.

#### **4-mavzu. Eron tillari akademiyasining faoliyati. Islom inqilobidan keyin tilni modernizatsiya qilishning mafkuraviy asoslari**

Ushbu mavzu 1979-yilgi Islom inqilobidan keyin Eron til va adabiyot akademiyasining faoliyati hamda tilni modernizatsiya qilishning mafkuraviy asoslariga bag'ishlangan. Ishda Akademiyaning lingvistik merosni asrash, leksikani standartlashtirish va, ayniqsa, g'arb tillaridan kirib kelayotgan so'zlarga qarshi kurashishdagi roli yoritiladi. Tilga "islomiy identitet"ni singdirish, leksikada mafkura ifodasi va davlat til siyosatining ta'lim, ommaviy axborot vositalari hamda madaniyatga ta'siri tahlil qilinadi.

#### **5-Islom inqilobidan keyin tilni modernizatsiya qilishning mafkuraviy asoslari**

Ushbu mavzu 1979-yilgi Islom inqilobidan keyin fors tilini modernizatsiya qilishning mafkuraviy asoslariga bag'ishlangan. Asosiy e'tibor tilni islomiy va milliy qadriyatlarga mos ravishda shakllantirishga qaratilgan. Jumladan, g'arb tillaridan olingan so'zlarni til tarkibidan chiqarish, fors tilining ichki imkoniyatlariga tayangan holda yangi atamalarni joriy etish harakatlari ko'rib chiqiladi. Til islohoti orqali amalga oshirilgan siyosiy va mafkuraviy maqsadlar, shuningdek, bu jarayonning ta'lim, OAV va madaniyatga ta'siri tahlil qilinadi.

#### **6-mavzu. Arab tilining fors tiliga o'zaro ta'sir etish bosqichlari.**

Ushbu mavzu yangi fors tili shakllangan ilk davrdan boshlab uning lug'aviy

boyligi va grammatik tuzilishida yuz bergan o'zgarishlarga bag'ishlangan. Til taraqqiyotining asosiy bosqichlari, jumladan, arab va boshqa tillarning ta'siri, shuningdek, ichki rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. Ayniqsa, eski fors tilining imlo xususiyatlariga, ularning keyingi yozuv shakllarida qanday aks etganiga va fors tilining tarixiy rivojlanishi davomida imlo qoidalarining asta-sekin o'zgarishiga alohida e'tibor qaratiladi.

#### **7-mavzu. Ikkinchi Til va adabiyot akademiyasining faoliyati haqida**

Mavzu Eronning Ikkinchi Til va adabiyot akademiyasi faoliyatiga bag'ishlangan. Annotatsiyada akademiyaning tashkil topish maqsadlari, asosiy vazifalari — fors tilini saqlash va rivojlantirish, leksikani tartibga solish, atamalar ustida ishlash hamda xorijiy so'zlarga qarshi kurash masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ma'lum tarixiy davrda Eron til siyosatini shakllantirishdagi akademiyaning o'rni tahlil qilinadi.

#### **8-mavzu. Zamonaviy fors tili taraqqiyotining ayrim jihatlariga haqida (1979 yil Islom inqilobidan keyin)**

Mavzu 1979-yilgi Islom inqilobidan keyin zamonaviy fors tili taraqqiyotining ayrim jihatlariga bag'ishlangan. Unda diniy mafkura, ijtimoiy o'zgarishlar va davlat til siyosatining ta'siri ostida yuz bergan leksik, morfologik va sintaktik o'zgarishlar tahlil qilinadi. Shuningdek, tilni yangi hayotiy sharoitlarga moslashtirish va uning madaniy o'zligini saqlab qolish yo'lidagi harakatlar ko'rib chiqiladi.

#### **10-mavzu. Hozirgi fors tilining lug'at boyligini frazeologik birliklar orqali to'ldirish**

Mavzu hozirgi fors tilining lug'at boyligini frazeologik birliklar orqali to'ldirishga bag'ishlangan. Annotatsiyada frazeologik birliklarning turlari, manbalari va tilni boyitishdagi roli tahlil qilinadi. Ayniqsa, ularning stilistik funksiyalari, madaniy ahamiyati va milliy dunyoqarashni ifodalashdagi o'rni alohida yoritiladi.

#### **11-mavzu. Fors tilining lug'at boyligini neologizatsiya va to'ldirish jarayonida o'zlashtirishning o'rni.**

Mavzu fors tilining lug'at boyligini neologizatsiya va to'ldirish jarayonida o'zlashtirishning o'miga bag'ishlangan. Unda o'zlashtirilgan so'zlarning manbalari, ularning paydo bo'lish sabablari hamda fors tilining morfologik va fonetik tizimiga moslashtirish mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Xususan, ilmiy, texnik va madaniy sohalarda o'zlashtirma so'zlarning til taraqqiyotiga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi.

#### **12-mavzu. Bugungi Erondagi til vaziyati va siyosati.**

Tashqi va ichki til siyosati. Eron tilining hozirgi holati va uning xususiyatlari tasvirlangan.

### **III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar "Sharq mamlakatlarida til vaziyati va siyosati (Eron)" fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, amaliy mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha

tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyot va manbalar bilan tanishish orqali bilim va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradilar. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

“Sharq mamlakatlarida til vaziyati va siyosati (Eron)” fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarga tavsiya etiladigan mavzular:

1. Til vaziyati predmeti tushunchasi. Tilshunoslikda bu sohada qilingan ishlar.
2. Til vaziyati, ularning turlari, til vaziyatining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillari
3. Eronda etnolingvistik vaziyat masalalari. Erondagi tillar. Ularning mamlakat hayotidagi roli.
4. Islom inqilobiga qadar va keyin fors leksikasining shakllanishi va rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari
5. Eronning uchta til Akademiyasi faoliyati.
6. Fors tilining mamlakat hayotidagi o'rni.
7. Fors tilining funksional lingvistik vaziyati.
8. Tilning zamonaviylashtirish shart-sharoitlari
9. Leksik fondni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari
10. Fors tilidagi neologizatsiyada ishtirok etadigan so'z yasashning asosiy usullari haqidagi ma'lumotlar
11. Uchinchi Akademiyaning faoliyati
12. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan til siyosati va uning xususiyatlari

#### **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'limni baholash semestr davomida berilgan topshiriq asosida bajarilgan ishlarni HEMISga ilova qilinadi.

#### **Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:**

1. Til vaziyati tiplari.
2. Erondagi etnolingvistik vaziyat, tillarning rasmiy maqomi, ularning mamlakat ijtimoiy hayotidagi o'rni. Tilning rivojlanishi va til tizimiga boshqa tillarning ta'siri masalasi.
3. O'rganilayotgan davlat tili lug'atining hozirgi holati.
4. Fors va arab tillari o'rtasidagi o'zaro ta'sirning bosqichlari
5. Pahlaviy sulolasining til siyosati.
6. Til purizmi va o'zlashtirilgan so'zlarni moslashtirish muammolari.
7. Eron islomiyashtirish siyosatining lingvistik oqibatlari.
8. Fors tiliga o'zlashtirish jarayonida G'arbiy Yevropa madaniyatining ta'siri.
9. Fors tili tadqiqotchilari asarlarida yevropeizmlar.
10. Leksik o'zlashmalarning moslashuvi va assimilyatsiyasi.
11. Erondagi so'nggi Til Akademiyasi faoliyati haqida

Talaba *mustaqil ishni* tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanishi mumkin:

- mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;
- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;

	<ul style="list-style-type: none"> <li>- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;</li> <li>- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;</li> <li>- ilmiy maqola, tezislari va ma'ruza tayyorlash.</li> </ul>
3.	<p><b>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b>  <i>"Sharq mamlakatlarida til vaziyati va siyosati (Eron)" fanini o'zlashtirish natijasida talaba:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- o'rganilayotgan mamlakatdagi sotsiologiyistik vaziyat;</li> <li>- o'rganilayotgan mamlakatning etnik tarkibi va ularning tili;</li> <li>- til vaziyati tushunchasi;</li> <li>- til vaziyati turlari va ularning farqlari;</li> <li>- tili o'qitilayotgan mamlakatdagi etnolingvistik vaziyat haqida <b>tasavvurga ega bo'lishi</b>;</li> <li>- bilingvizm va polilingvizm;</li> <li>- davlat tili tushunchasi, ya'ni o'rganilayotgan mamlakatda olib borilayotgan til siyosati;</li> <li>- jamiyatda til vaziyatini xarakterlovchi omillar;</li> <li>- o'rganilayotgan mamlakatda til vaziyatini me'yorga solishda Til akademiyalarining o'rni;</li> <li>- savodsizlik darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda davlat tomonidan o'tkazilayotgan til bilan bog'liq ta'lim tizimidagi islohotlar;</li> <li>- OAV va televidenieng mamlakatdagi til vaziyatiga ta'siri;</li> <li>- xalqaro mehnat taqsimotida Sharq mamlakatlarining roli va o'rganilayotgan mamlakatdagi til vaziyatiga ularning ta'siri haqida <b>bilishi va ulardan foydalana olishi</b>;</li> <li>- til vaziyatining rivojlanish tendensiyalari;</li> <li>- til vaziyatining rivojlanish omillari va tarixiy-madaniy sabablari;</li> <li>- o'rganilayotgan mamlakatning lingvogeografik va lingvoareal tavsifi;</li> <li>- o'rganilayotgan mamlakat adabiy tilining maishiy-so'zlashuv tili va dialektlardan farqi;</li> <li>- o'qitilayotgan til lug'at boyligining o'sishida turli ilmiy tashkilotlarning o'rni haqida <b>ko'nikmalarga ega bo'lishi</b>;</li> <li>- o'rganilayotgan mamlakatdagi til vaziyati bo'yicha ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va tizimlashtirish;</li> <li>- o'rganilayotgan tilni isloh qilish yo'lida olib borilgan harakatlar, ularning faoliyatiga umumiy baho berish;</li> <li>- globallashtirish sharoitida o'rganilayotgan sharq tilining umumiy holati bo'yicha kechayotgan o'zgarishlarni tushuna olish <b>malakalariga ega bo'lishi kerak.</b></li> </ul>
4.	<p style="text-align: center;"><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> </ul>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash.</li> </ul>
5.	<p style="text-align: center;"><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;"><b>VIII. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Азимджанова Д.А. Языковая ситуация и политика в Иране. Т.2021.</li> <li>2. Azimdjanova D.A. O'rganilayotgan mamlakatda til vaziyati. - T., 2009.</li> <li>3. Мираипова Г.У. Развитие лексики современного персидского языка в период после исламской революции 1979 года: Диссертация на соискание ученой степени к.ф.н. - Ташкент, 1994.</li> <li>4. Куранбеков А. Проблемы формирования научно-технической терминологии в современном персидском языке// Вопросы филологии. - М., 2003. - № 2 (14).</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – Toshkent: O'zbekiston, 2024.</li> <li>2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.</li> <li>3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.</li> <li>4. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.</li> <li>5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.</li> <li>6. Актуальные проблемы строя иранских языков. – М.: Изд-во Московского университета, 1988.</li> <li>7. Гладкова Е.Л. Пути развития общественно-политической лексики современного персидского языка. Монография .М. «МГИМО-УНИВЕРСИТЕТ», 2013.</li> <li>8. Еремина К.Н. К проблеме языковых контактов// Европеизмы в современном персидском языке. - М., 1980. Зарубежный Восток// Языковая ситуация и языковая политика. - М.,1986.</li> <li>9. Исмаилов А.К. Вопросы нормирования лексического состава персидского языка и литературы// Исследования по восточным языкам. - М.,1973.</li> </ol>

10. Каменева М.С. О деятельности двух Академий языка Ирана и некоторых инновациях в лексике персидского литературного языка// Развитие языков в странах Зарубежного Востока. - М., 1983.
11. Каменева М.С. Политика исламизации в Иране и ее лингвистические последствия // Народы Азии и Африки. – М., 1985. - №5.
12. Каменева М.С. Влияние западно-европейской культуры на процессы заимствования в современном персидском языке// Лексические заимствования в языках зарубежного Востока. - М., 1991.
13. Никольский Л.Б. Язык в политике и идеологии стран зарубежного Востока. - М., 1986.
14. Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. – Москва: Издательство МГУ, 1975.
15. Рубинчик Ю.А. Языковые проблемы современного Ирана// Проблемы изучения языковой ситуации и языковой вопрос в странах Азии и Северной Африки. - М., 1970.
16. Рубинчик Ю.А. Развитие языка и вопросы иноязычного влияния на языковую систему (арабизмы и европеизмы в персидском языке)// Лексические заимствования в языках зарубежного Востока. - М., 1981.

#### Scopusdan maqolalar

17. Persian-tajik word-forming affixes of the agent noun in the uzbek language Eur. Chem. Bull. 2023, 12 (Special Issue 9), 563-568. <https://www.eurchembull.com/issue-content/persian-tajik-word-forming-affixes-of-the-agent-noun-in-the-uzbek-language-7890> (хаммуаллифликда: Alimova, Kh., Azimjanova, D., Akhmedova, D., & Nuriddinov, N.)
18. Polysemy of Simple Verbs in The Persian Language. <https://spast.org/techrep/article/view/5025>  
The Second Pamir Transboundary Conference for Sustainable Societies-2023 | PAMIR 2023, pp.96-107 (хаммуаллифликда: Akhmedova D., Alimova Kh., Azimjanova D., Nuriddinov N., Azimbayeva N., Arifdjanov Z.)

#### Axborot manbalari

19. <http://www.ziyo.net>
  20. <http://mt.tsuos.uz/>
  21. [www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)
  22. [www.irandoc.ac.ir](http://www.irandoc.ac.ir)
  23. <http://www.iranmiras.org>
7. Fanning o'quv dasturi Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabida ishlab chiqilgan va 2025-yil "20" 06 dagi 20 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.  
O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025-yil "28" 06 dagi 11 — sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

8.	<p><b>Fan/modul uchun ma'sul:</b>          Azimdjanova D.A. – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabi dotsenti, f.f.n.</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b>          Nizomova F. – O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi;          Alimova H.Z.. – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabi professori, filologiya fanlari doktori (DSc)</p>

*Handwritten signature*